

XITOIY TILIDA GASTRONOMIK METAFORALARNING STRUKTUR TAHLILI

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola xitoy tilidagi gastronomik metaforalarning struktur xususiyatlarini lingvistik nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan bo'lib, metaforik birliklarning grammatik modeli, tarkibiy tuzilishi va ularning nutqiy funksiyalarini aniqlashni maqsad qiladi. Ish natijalari xitoy tilidagi gastronomik metaforalar tizimini struktur jihatdan tavsiflash, ularning konseptual asoslarini aniqlash va mazkur birliklarning diskursdagi qo'llanish xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'z. Kognitiv metafora, gastronomik metafora, fe'l+ot modeli, sifat+ot modeli, sifat+ot+ot modeli, fe'l+ot+qo'shimcha komponent modeli.

Kognitiv metafora zamonaviy lingvistikaning eng muhim nazariy yo'nalishlaridan biri bo'lib, metaforani faqat badiiy vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining konseptual tuzilmasini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm sifatida tushuntiradi. J. Lakoff, M. Jonson,⁴ Z. Kövecses⁵ kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi metaforalarning manba va maqsad domenlari o'rtasidagi xaritalash mexanizmlarini ochib berib, ularning idrok, tafakkur va til o'rtasidagi uzviy bog'liqligini isbotladi.

Xitoy tili o'ziga xos ideografik yozuvga ega bo'lgani bois til birliklari, xususan, leksik birliklar tahlili avvalo struktur tahlilni talab qiladi. Chunki, xitoy tilida so'zlar bo'g'inlarga ajratilganda har bo'g'in bir iyeroglif vositasida yoziladi. Har bir iyeroglif o'z navbatida muayyan ma'noga ega bo'ladi. Tadqiqot doirasida bir nechta gastronomik metafora tahlilga tortildi. Ular tarkibiy tuzilishiga ko'ra, ikki, uch va to'rt komponentli turlarga ajratildi.

Komponent tahlil asosida xitoy gastronomik metaforalari bir qator barqaror struktur modellarga ajratiladi. Ushbu modellar metaforalar qanday shakllanayotganini, mazmunning qanday tarzda ko'chayotganini va gastronomik birliklar qaysi kognitiv jarayonlar orqali yangi ma'no kasb etishini aniqlashga yordam beradi.

1. Fe'l + ot modeli: 吃苦 chī kǔ “qiyinchilik yemoq” (mashaqqatga chidash), 吃闲饭 chī xiánfàn “bekor yemoq” (ishlamasdan yashash), 喝西北风 hē xīběifēng “shimoliy shamol ichmoq” (och qolmoq), 炒冷饭 chǎo lěngfàn “sovuq taomni qovurmoq” (eski mavzuni takrorlash).

⁴ Lakoff D., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.

⁵ Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — P. 15–18.

“许多村民还主动腾出自家住房，近百口无亲可靠，无友可投的朝鲜族兄弟，被请进了双金嘎查，蒙，汉，鲜三个民族同‘吃一锅饭’，同住一栋房，亲如一家。”（“人民日报”1998-05-17, 9版）

“Ko‘pgina qishloq aholisi ham o‘z uylarini bo‘shatish tashabbusi bilan chiqdilar. Qarindoshlari, ishonchli do‘stlari, murojaat qiladigan do‘stlari bo‘lmagan yuzga yaqin koreys birodarlar taklif qilindi, mo‘g‘ul, xan va koreys millati ‘bir qozondan yeb’, bir uyda yashab, bir oiladek yaqin bo‘lib qolishdi.

“吃一锅饭” chī yì guō fàn “bir qozondan taom yeyish” shunchaki birga ovqatlanishdan ko‘proq narsani anglatadi, bu chuqur munosabatlarni anglatib, ahillik, inoqlikni munosabatlarini bildiradi. Bu ma‘no ko‘chish orqali ijtimoiy hamkorlik insonning eng oddiy tajribasi — birga ovqatlanish bilan metaforik bog‘lanadi va inson ongida tez faollashadigan kuchli obraz hosil qiladi.

Bu modelda fe‘l metaforik harakatni belgilaydi, ya‘ni metaforaning dinamik mazmunini yaratadi. Ot esa bu harakatning predmet-komponenti bo‘lib, mazmunni aniq bir holatga yo‘naltiradi. Natijada ushbu model inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy jarayonlarni tasvirlashda eng keng qo‘llanadigan metaforik struktura hisoblanadi.

2. Sifat + ot modeli: 夹生饭 jiāshēng fàn yarim pishgan guruch (yarim tayyor ish), 陈谷子 chén gǔzi eski tariq (eskirgan masala), 硬骨头 yìnggǔtóu qattiq suyak (murosa qilmaydigan odam).

Bu modelda sifat so‘zi predmetning jismoniy yoki sezgi asosidagi belgisi bo‘lib, metaforik ma‘noda vazifa, odam, yoki vaziyatning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini bildiradi. Sifat + ot modeli odatda baholovchi, karakterlovchi metaforalarni yaratadi va shaxsning xarakterini yoki biror vaziyatning murakkabligini ifodalashda keng ishlatiladi.

3. Sifat + ot + ot modeli: 铁饭碗 tiě fǎnwǎn temir guruch kosa (barqaror, doimiy ish), 大锅饭 dàguōfàn katta qozon (teng taqsimot tizimi), 宽心丸 kuānxīnwán tinchlik tabletkasi (tasalli beruvchi so‘z yoki choralar).

“他最珍视自由，为那个，他甘心把‘铁饭碗’打破。” (<https://mall.ifeng.com>)

“U erkinlikni eng qadrlidi deb bilar edi, aynan shu erkinlik uchun u ‘temir guruch kosa’sini sindirishga tayyor edi.”

“铁饭碗” tiě fǎn wǎn “temir guruch kosasi” bu - “Xitoyda ishsizlik xavfi mavjud bo‘lmagan, yuqori barqarorlikka ega ish o‘rinlari va kafolatlangan ish haqi tizimini anglatadi. Bunday lavozimlarning doimiyligi, barqarorligi va o‘zgaruvchan sharoitlardan ta’sirlanmaydigan mustahkamligi obrazli tarzda ‘temir’ materiali bilan qiyoslanadi. Shu sababli harbiy xizmatchilar, davlat xizmatidagi xodimlar, davlat maktablari o‘qituvchilari va davlat muassasalari faoliyat yurituvchi boshqa mutaxassislar odatda ‘temir guruch



kosasi'ga ega kasblar qatlamiga mansub hisoblanadi"⁶. O'zbek tilida ham biror bir qiyin ish, kasb turiga nisbatan "buni nonini yeyish uchun temirdan tishing bo'lishi kerak" degan o'xshatishlarni ishlatishadi. "铁饭碗" tiě fàn wǎn "temir guruch kosasi" tirikchilik uchun metafora hisoblanadi, ya'ni yaxshi yashash uchun kosa temirdan bo'lmasa sinib qoladi, barqaror, doimiy kasb egasi bo'lish kerakligini anglatadi. Metafora "tirikchilik" bu - "kosa", "barqarorlik" bu - "temir" asosida qurilgan konseptual tizimni aks ettiradi.

Ushbu murakkab model qismlar o'rtasidagi semantik bog'lanish natijasida metaforani yanada abstrakt, ijtimoiy yoki institutsional mazmunga ega qiladi. Model davlat siyosati, ijtimoiy tizimlar, kasb barqarorligi yoki jamiyatdagi rollarni ifodalashda qo'llaniladi. U mazmunning institutsional darajadagi metaforik xaritasini yaratadi.

4. Fe'l + ot + qo'shimcha komponent (son, sifat, qarama-qarshilik, yo'nalish): 分一杯羹 fēn yībēigēng sho'rvadan ulush olish (manfaaddan ulush talab qilish), 吃软饭挣硬钱 chī ruǎnfàn zhèng yìngqián yumshoq guruch yeb, qattiq pul topmoq (nomaqbul yoki manipulyativ strategiya bilan foyda topish).

Bu modelning o'ziga xosligi shundaki, fe'l va ot asosiy metaforik birikmani bersa, qo'shimcha komponent mazmunni keskin kengaytiradi yoki qarama-qarshi ma'no yaratadi. Natijada metafora iqtisodiy manfaat, siyosiy raqobat, strategik harakat yoki qayta taqsimot kabi murakkab jarayonlarni ifodalay oladi.

Gastronomik metaforalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xitoy tilidagi metaforik boylikning muhim qismi aynan "oziq-ovqat" konsepti orqali shakllanadi. Shu bois bu metaforalar: mavhum tushunchalarni anglash uchun kognitiv ko'prik vazifasini bajaradi; psixologik va ijtimoiy holatlarni aniq va obrazli shaklda ifodalaydi; milliy madaniyatga xos qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarashni aks ettiradi; inson hayotining turli jabhalarini kuchli emotsional rangda tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.
3. 陈正德 (Wasin Suksomboomwong). 汉泰饮食隐喻对比研究. - 华中师范大学文学院, 2018 年. - 160页.
4. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.

⁶ <https://baike.baidu.com>